

ramziy sonlarning ifodalanishini ko'rsatish orqali ularning xalq tafakkuri va madaniyatidagi konseptual mohiyati ochib berilgan.

ВЫРАЖЕНИЕ КОЛИЧЕСТВЕННОГО ЗНАЧЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Нилуфар Эгамбердиева

Докторант Намаганского государственного университета

egamberdiyevan96@gmail.com

Намаган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	концепт	Аннотация:
количества, когнитивная лингвистика, лингвокультурологический концепт, фразеология, выражение.	фразеологические единицы узбекского языка классифицированы по семантическим группам в зависимости от отражения концепта количества и подвергнуты анализу. На основе сбора и группировки фразеологических единиц, выражающих количественное значение, раскрыты их когнитивные и лингвокультурологические особенности. Путём рассмотрения выражений множественности, малочисленности, преувеличения, недостаточности и символических чисел показана концептуальная сущность данных единиц в народном мышлении и культуре.	

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda inson tafakkurining til birliklarida qanday aks etishi masalasi dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kognitiv tilshunoslik konsept tushunchasini markazga qo'yib, til orqali milliy dunyoqarashni tadqiq etishga e'tibor qaratmoqda. Konseptlar orasida miqdor alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u nafaqat matematik tushuncha sifatida, balki xalqning hayot tajribasi, qadriyatlari va madaniyatida ham ramziy ifodaga ega.[1] O'zbek tilida miqdor konseptini ifodalovchi vositalar xilma-xil.[2] Miqdor universal kategoriya bo'lgani uchun tilning barcha sathlarida unga oid birliklarni uchratish mumkin. Shulardan biri frazeologik birliklardir. O'zbek xalq tafakkurida miqdor ko'pincha mubolag'a, ozlik, ko'plik, ramziy sonlar orqali anglashiladi va bu holat frazeologik birliklarda yorqin namoyon bo'ladi.

Frazeologizmlarning semantik, struktur va stilistik xususiyatlari o'zbek tilshunosligida bir qator olimlar (A. Madayev, A. Hojiyev, Sh. Rahmatullayev va boshqalar) tomonidan tadqiq etilgan.[3] Son va miqdor ifodasining lingvistik tahliliga oid ayrim ilmiy ishlarda miqdor tushunchasining grammatik jihatlari o'rganilgan bo'lsa-da, frazeologik birliklarda miqdor

konseptining kognitiv-semantik ifodasi alohida keng yoritilmagan.[4] Shu bois ushbu mavzu yangi izlanishlarni talab etadi.

Frazeologik birliklar ma'no butunligiga ega bo'lgan, ikki yoki undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan hamda nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'noli barqaror birikmalardir. Ularning eng muhim xususiyatlari ma'no yaxlitligi, tarkibning barqarorligi va nutq jarayoniga qadar mavjudligidir. [5]

Frazeologizmlarni miqdor ma'nosini bildirishiga ko'ra quyidagi ma'noviy guruhlariga bo'lishimiz mumkin:

- ko'plikni bildiruvchi frazeologik birliklar;
- ozlik va yetishmovchilikni bildiruvchi frazeologik birliklar;

O'zbek tilidagi frazeologik birliklarda ko'plik ma'nosi ko'pincha mubolag'a orqali ifodalanadi. Ular xalq tafakkurida narsaning, hodisaning ko'pligini miqdoran emas, balki tasavvuriy va obrazli shaklda ifodalaydi. Bu kabi frazeologizmlar ko'plikni nafaqat miqdoriy, balki emotsional-ekspressiv tarzda ham ifodalaydi. Chunki xalq ongida ko'plikni son bilan sanab chiqishdan ko'ra uni mubolag'a orqali kuchliroq tasavvur qilish odati mavjud.

“Bir dunyo” juda ko'p ma'nosini anglatadi. Bu ibora mubolag'ali ko'plikni ifodalaydi. Ya'ni, oddiy “ko'p” so'zi o'rnida, kuchaytirib, “bir dunyo” deyiladi. U mehmon kutishda aytiladigan bir dunyo gapni tez-tez va bir nafas bilan to'kib tashladi-yu, Saidani ichkariga taklif qildi.

Unga sinonim sifatida “bir olam” iborasini ham keltirish mumkin. Bu xabar onasiga bir olam quvonch olib keldi.

Inson ongida “dunyo” tushunchasi juda keng, cheksiz, chegarasiz miqdor sifatida shakllangan. Shu bois “dunyo” so'zi biror narsaning haddan tashqari ko'pligini tasavvur qilish uchun ishlatiladi.

Kognitiv jihatdan esa o'zbek xalqi ongida: “dunyo - hamma narsa, juda katta miqyos”, “bir dunyo” sanab tugatib bo'lmaydigan darajada ko'p”. Bu yerda kognitiv metafora ishlaydi: “Miqdor ko'pligi” → “Dunyo kengligi” ga qiyos qilinadi. Masalan, “bir dunyo savol” deganda, savollarni dunyo kengligidek ko'p deb tasavvur qilamiz.

Lingvokulturologik xususiyatlariga nazar tashlasak, o'zbek xalqi ongida “dunyo” so'zi faqat yer yoki olamni emas, balki kenglik, cheksizlik, to'lib-toshganlik ramzi sifatida ham mavjud. Shu sababli frazeologiyada u ko'pincha mubolag'ali miqdorni ifodalash uchun ishlatiladi. Ko'rinadiki, ibora ko'plikni bildirish bilan birga xalqning dunyo bilan bog'liq tasavvurlarini ham aks ettirmoqda.

Boshini yeb. Tut o'lgur boshini yeb, tagi bilan bitta bo'lib to'kilib yotibdi.

“Boshini yeb” iborasi hosil kontekstida ko‘plikning mubolag‘ali modelini ifodalaydi: ko‘p meva shoxini “egadi”, natijada ko‘plik og‘irlik va to‘kilish ssenariylari orqali tasvirlanadi. “Tut o‘lgur” komponenti ekspressiv kuchaytirgich bo‘lib, hayrat va baraka bahosini beradi. Kognitiv tahlil: ko‘plik → og‘irlik → egilish. Inson ongida ko‘p hosil “og‘irlik” orqali idrok etiladi.

Metafora: “meva ko‘pligi - bosish, ezish, yeb yuborish”. Shoxning ko‘tarolmasligi “boshini yedi” deb tasvirlanadi. Ssenariy: Ko‘p hosil → shox egiladi → mevalar to‘kiladi → yer to‘lib ketadi. Bu konseptual ssenariy orqali odam ongida barakali hosilning obrazli tasviri hosil bo‘ladi. Shuningdek, xalq ongida daraxt - baraka ramzi. Shuning uchun hosilning ko‘pligi ijobiy qadriyat sifatida baholanadi. “Tut o‘lgur” – aslida salbiy so‘z, ammo xalq nutqida ko‘pincha erkalash, hayratlanish, maqtash ma‘nosida ishlatiladi. Bu xalqning hissiy nutq odatini ko‘rsatadi. To‘kilish va qoplash – o‘zbek xalqining baraka, mo‘l-ko‘llik haqidagi tasavvurlari bilan bog‘langan obraz. Demak, ibora ko‘plikni ham bildiradi, balki xalqning hosil, tabiat va baraka haqidagi qadriyatlarini ham ifodalaydi. Shuningdek, u oddiygina ko‘plikni emas, balki mubolag‘ali barakani, xalq tafakkurida hosilning og‘irlik, to‘kilish va qoplash obrazlari orqali ifodalangan konseptini ochib beradi.

Nari borsa - ko‘pi bilan ortig‘i bilan. Onasi vafot etganda Shukurjon nari borsa ikki yoshga to‘lgan bir go‘dak edi. Bu iborada asosiy ma‘no: “eng ko‘pi bilan”, “ortiq emas”, “undan oshmaydi”. Miqdoriy jihatdan chegaralangan ko‘plikni bildiradi. Misolda: “Shukurjon nari borsa ikki yoshga to‘lgan edi” → “Shukurjonning yoshi eng ko‘pi bilan ikki bo‘lgan, undan ortiq emas”. Kognitiv tahlilda konseptual modelga asoslanib “Chegara qo‘yish” – inson ongida miqdor o‘zini “chegarasi bor” tarzda tasavvur hosil qiladi. Metafora: “Yurish/borish” → “miqdorga yetish” sifatida talqin qilinadi. “Nari borsa” - undan uzoqqa bora olmaydi. Demak, ibora orqali inson tafakkurida chegaralangan, ortmaydigan miqdor tasavvuri shakllanadi.

Lingvokulturologik jihatdan tahlil qilsak, o‘zbek xalq nutqida “nari borsa” juda ko‘p ishlatiladi va u hissiy chegaralashni bildiradi. Xalq madaniyatida aniq raqamdan ko‘ra, taxminiy, lekin cheklangan miqdorni aytish odat tusiga kirgan. Bu bir tomondan aniqlikdan ko‘ra ehtimollik va taxminni qadrlash, boshqa tomondan o‘rtacha, me‘yoriy tafakkurni ko‘rsatadi.

“Nari borsa” frazeologizmi semantik jihatdan “ortiq emas” ma‘nosini beradi; kognitiv jihatdan miqdorga chegaralash konseptiga asoslanadi; lingvokulturologik jihatdan esa xalqning taxminiy va me‘yoriy fikrlash odatlarini namoyon qiladi.

Ming bir. Son-sanoqsiz, juda ko‘p. xotinlar. To‘p-to‘p odamlar.. Militsiya.. Nazarov, Nigora, onasi. Nihoyat sho‘rlik Muhabbatning yig‘lamsirab zorlanishi – hammasi unga ming bir azob berib xayolidan o‘tdi.

Ming marta juda ko‘p marotaba. Bu gapingizni ming marta eshitganmiz. Shu bilan birga ming marta aytdim, ming marta ko‘rganman kabi qo‘llanishlarda birlikning ma‘nosi aniq ming emas, balki juda ko‘p, ko‘p bora deya bo‘rtirilgan, kuchaytirilgan miqdoriy ma‘no bergan.

Inson ongida ming soni real hisoblashdan ko‘ra cheksizlikka yaqin bo‘lgan miqdorni tasavvur ettiradi. Bu ibora orqali takroriylik va davomiylik ta‘kidlanadi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida ming soni ko‘plikni, barakani, to‘kinlikni bildiradi: ming yillik tarix, ming orzu. Shunday qilib bu ibora faqat miqdorni emas, balki milliy madaniyatdagi hissiy-emotsional munosabatni ham ifodalab keladi.

Ikkinchi guruh, ozlikni bildiruvchi frazeologizmlar tahlili ham o‘ziga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Ozlikni ifodalovchi iboralar orqali predmet yoki hodisaning juda kamligi, yetarli emasligi, muhtojlik ifodalanadi. Ozlikni ifodalashda ko‘pincha tana a‘zolari (tutam, hovuch) yoki uy-ro‘zg‘or buyumlari (chimdim, bo‘lak) o‘lchov mezoni sifatida ishlatilgan. Bu esa xalq tafakkurida dunyo miqdorini bevosita insonga va turmushga bog‘lab idrok etish an‘anasini ko‘rsatadi.

Barmoq bilan sanarli. Bir necha. Ilgari barmoq bilan sanarli ishchi xizmatchilar 1907-1910-yillarda bir ming olti yuzga yetib borgan edi. Asosiy ma‘no: juda oz, kam sonli, barmoq bilan sanaydigan darajadagi ko‘rsatkich. Yana qo‘shimcha misol: “Barmoq bilan sanarli odam qoldi” → atigi bir necha kishi qoldi. Bu ibora kamlikni ifodalaydi. Kognitiv jihatdan quyidagicha tahlil kelib chiqadi. Konseptual asos: inson tafakkurida barmoq - kichik, sanaladigan son. Metafora: “Kam miqdor” “qo‘l barmoqlari bilan sanash mumkin bo‘lgan son”. Ongdagi ssenariy: qo‘lni ochib → 5–10 gacha sanash → bundan oshmagan kichik miqdor. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ibora kamlikni vizual va jismoniy tajriba orqali ongda modellashtiradi.

Lingvokulturologik tahlil. O‘zbek madaniyatida barmoq bilan sanash kundalik hayot tajribasidan kelib chiqqan. Ko‘pchilik hisoblash vositasi bo‘lmagan davrlarda odamlar sonni qo‘l bilan sanagan. Shu sababli xalq ongida “barmoq bilan sanarli” deganda aniq hisobdan ko‘ra ozlik, ko‘zga ko‘rinadigan kamlik nazarda tutiladi. Bu frazeologizm xalqning amaliy hisoblash madaniyati va son–kamlik konseptini ifodalashning madaniy izini ko‘rsatadi.

“Barmoq bilan sanarli” frazeologizmi semantik jihatdan “juda oz” ma‘nosini beradi; kognitiv jihatdan qo‘l barmoqlarida sanash tajribasiga asoslanadi; lingvokulturologik jihatdan esa xalqning hisoblash va sonlarni idrok etish odatini ifodalaydi.

Bir shingil juda oz. Payti kelganda doktorlardan, professorlardan ham bir shingil-yarim shingil maslahat oldim. Bu ibora kamlikni ifodalaydi.

Kognitiv tahlilga asosan konseptual asos: “shingil” so‘zi aslida mevali daraxtdan uzilgan, ozgina band yoki shoxchaga yopishgan meva (masalan, uzum shingili)ni anglatadi. Inson ongida “shingil - bir dasta, kichik uyum” tasavvuri mavjud. Metafora: “Miqdor kamligi” → “shingil

miqdori”. Ongdagi ssenariy: odam uzumdan “bir shingil” uzsa, bu hech qanday katta miqdorni tashkil etmaydi → ozgina, sanarlik.

O‘zbek xalq madaniyatida uzum, mevali daraxtlar, hosil ramziy ahamiyatga ega. “Bir shingil” orqali xalq mehnat va dehqonchilik tajribasidan olingan o‘lchov birlikni majoziy ma’noga ko‘chirgan. Shunday qilib, madaniy jihatdan “bir shingil” – ozgina, qanoatlanish mumkin bo‘lgan miqdorni bildiruvchi xalqona o‘lchov vositasi sifatida shakllangan.

“Bir shingil” frazeologizmi semantik jihatdan juda oz miqdorni bildiradi; kognitiv asosida uzum shingilini oz miqdor sifatida idrok etish tajribasi yotadi; lingvokulturologik jihatdan esa xalqning dehqonchilik va tabiatga oid tasavvurlarini aks ettiradi.

Bir tutam juda oz. Bir tutam qish kuni Gulnor uchun bitmas-tuganmas uzoq ko‘rindi. Ibora yetarli bo‘lmagan miqdorni bildiradi.

O‘zbek xalq tafakkurida “tutam” inson qo‘li bilan ushlab oladigan eng kichik miqdor o‘lchovi sifatida qabul qilingan. Bu holatda miqdor inson tana a‘zosi orqali idrok qilinadi. Bu antroposentrik qarashning namunasidir. Chunki xalq narsalarni sanash yoki o‘lchash uchun avvalo o‘z tana a‘zolarini mezon sifatida olgan.

Yana e‘tiborli jihat borki, xalqimizda ko‘p – yaxshi, oz – yomon tarzidagi qarama-qarshi qadriyat mavjud. Shu jihatdan bir tutam iborasi madaniyatimizda ko‘pincha tanqidiy yoki achinish ohangida qo‘llanadi. Masalan: “Bir tutam aqli yo‘q odamdan maslahat kutyapsanmi?” “Bir tutam dardi bor, hamma joyda unga chiday olmaydi.”

Bir og‘iz juda oz. Bu ibora ozlik konseptini ifodalaydi. Matlubaning ana shu bir og‘iz so‘zi qalbidagi dunyo-dunyo minnatdorchiligini ifoda etdi. Inson tafakkurida og‘iz → so‘z, nutq bilan bog‘lanadi. “Bir og‘iz” deganda, gapning o‘lchovi og‘iz orqali belgilanadi, bu esa xalq tafakkurining antroposentrik xususiyatini ko‘rsatadi (ya‘ni, inson tana a‘zolari orqali dunyoni o‘lchash).

“Bir og‘iz” iborasi ongda ozgina miqdor – qisqa nutq – ta‘sirchanlik konseptlarini uyg‘otadi.

Lingvokulturologik jihati. O‘zbek xalq madaniyatida gap, so‘zning qadri ulkan. “Bir og‘iz so‘z bilan odamni ko‘tarish ham, yiqitish ham mumkin” degan qarash bor. “Bir og‘iz” iborasi ko‘pincha achinish (bir og‘iz salom aytmasi), minnatdorchilik (bir og‘iz rahmat aytish), yoki ta‘sirchanlik (bir og‘iz gap bilan hammani hushyor qildi) ohangida ishlatiladi.

Xulosa. Frazeologik birliklar tilda nafaqat obrazlilik va emotsional-ekspressivlikni, balki xalq tafakkurining qadimiy qatlamlarini ham namoyon etadi. O‘zbek tilida miqdor konsepti frazeologizmlar orqali turli semantik guruhlarda ifodalanib, xalq dunyoqarashi va milliy madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ochib beradi.

Shu bois frazeologik birliklar miqdor konseptini ifodalashda nafaqat lingvistik, balki madaniy va kognitiv jihatlarni ham yoritadi. Ular orqali xalq tafakkurida “ko‘p – baraka, yaxshi;

oz – yetishmovchilik, achinish yoki tanqid” kabi qadriyat mezonlari shakllanganligi ko‘rinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, miqdor konseptini frazeologizmlar asosida o‘rganish o‘zbek tilshunosligida konseptual tahlil imkoniyatlarini kengaytiradi va xalqning milliy tafakkurini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Ushbu maqola natijalari o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarni semantik va kognitiv nuqtai nazardan tadqiq etishda yangi material sifatida xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘zbek xalqining dunyoqarashi va milliy tafakkurini frazeologik birliklar misolida tahlil qilishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Egamberdiyeva Nilufar Latibjon Qizi. "O‘ZBEK TILIDA MIQDOR KONSEPTINING IFODALANISHIDA HISOB SO‘ZLARNING AHAMIYATI" Research Focus, vol. 1, no. 2, 2022, pp. 172-175.
2. D.A.Nabiyeva, N.L.Egamberdiyeva, “Miqdor tushunchasining falsafiy va lingvistik talqini“, Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 5-son. 1821-1825 b.
3. Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov O‘zbek tili frazeologik lug‘ati, G‘.G‘ulom nashriyoti Toshkent-2022. 7-10 b.
4. Egamberdiyeva, N. L. qizi. (2023). Miqdor konseptining kognitiv va lingvokulturologik jihatlari. Educational Research in Universal Sciences, 2(2 SPECIAL), 217–221.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. –Тошкент, 1992.
6. Кузина Ирина Юрьевна. (2016) Категория количества и ее выражение в языке (введение в проблематику). 108-118., Прикладной лингвистики ФГБОУ ВПО «ИГЛУ», г.Иркутск, Россия.